

## CHAVOQ BALIQ (RITILIS RITILUS) NING UMUMIY TASNIFI, KO'PAYISHI, TURLARI VA AHAMIYATI

**Homidova Zilola Yunusovna**

**Navoiy Davlat Universiteti doktoranti**

**Profi University "Ta'lim faoliyati va tillar" fakulteti dekani**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14190652>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chavoq baliq (*Rutilus rutilus*)ning umumiy morfo-biologik belgilari, yashash joyi va turmush tarzi, oziqlanishi, ko'payish jarayoni va unga yaqin turlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В статье представлены сведения об общей морфобиологической характеристике плотвы (*Rutilus rutilus*), среде обитания и образе жизни, питании, процессе размножения и родственных видах.

**Abstract:** The article presents information about the general morphobiological characteristics of roach (*Rutilus rutilus*), habitat and lifestyle, nutrition, reproduction process and related species.

**Kalit so'zlar:** Chavoq baliq (*Rutilus rutilus*), farengeal, pH 5.5, fitofil, Orol chavoq balig'i (*Rutilus rutilus aralensis*), Kaspiy chavoq baliq (*Rutilus rutilus caspicus*).

**Ключевые слова:** Плотва (*Rutilus rutilus*), глоточная, pH 5,5, фитофильная, островная плотва (*Rutilus rutilus aralensis*), каспийская плотва (*Rutilus rutilus caspicus*).

**Key words:** Roach (*Rutilus rutilus*), pharyngeal, pH 5.5, phytophilic, island roach (*Rutilus rutilus aralensis*), Caspian roach (*Rutilus rutilus caspicus*).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 oktyabrdagi "Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-845-son qaroriga inoan baliq va baliq mahsulotlari inson organizmi uchun muhim ahamiyatga ega ozuqa turlaridan biri hisoblanadi. Uni tabiiy suv havzalaridan ovlash, uy va dala sharoitida yetishtirish ham mumkin. Baliq va baliq mahsulotlari kimyoviy tarkibi, ta'mi jihatidan mol go'shtidan qolishmaydi, ammo hazm bo'lishi jihatidan undan ancha ustun turadi. Yangi baliq go'shtida 15- 22 % oqsil, 0,2 dan 30,8% gacha yog' va oz miqdorda uglevodlar bor. Asosiy baliq oqsili ixtulin va kallogendan iborat. Ixtulin o'rni almashinib bo'lmaydigan aminokislotalardan iborat bo'lib, odam uchun zarur bo'lgan qimmatli oqsil hisoblanadi.

**Umumiy tasnifi:** CHORDATA TURI-CHORDATA

Vertebrata (Craniata) kichik turi-umurtqali hayvonlar (kranial)

Gnathostomata Superclass-og'iz bo'shlig'i

Teleostomi Bonaparte, 1836 yil-yuqori baliqlar

Actinopterygii Klein klassi, 1885 yil-nurli qush

Neopterygii kichik klassi-yangi tukli baliqlar

Teleostei bo'limi-suyakli baliqlar

Euteleostei bo'limi - haqiqiy suyakli baliqlar

Ostariophysii – suyak pufakchali superorder

Otophysi Seriyasi

Cypriniformes tartibi-cypriniformes  
 Cyprinidae Fleming oilasi, 1822 yil-Cyprinidae  
 Leuciscinae Bonaparte kichik oilasi, 1837 yeltsovlar  
 Rutilus Rafinesque jinsi, 1820-roachlar  
 Rutilus rutilus (Linnaeus, 1758) – oddiy Roach

Chavoq baliq (*Rutilus rutilus*), sazan oilasining bir turi bo'lib, kichik o'lchamli, 30-50 sm oralig'idagi, og'irligi 2kg ga yetadigan, taxminan 15-20 yil yashaydigan baliq turi hisoblanadi. Tashqi tuzilishi tanasi cho'zilgan, tekis, go'yoki siqilganga o'xshaydir, uning rangi baliqning yashash joyi va yoshiga qarab o'zgaradi. Yon tomoni och kumushrang, qorni oq, orqa tomoni ko'k va yashil ranglar bilan farqlanadi. Yashash joyiga qarab, tananing uzunligi kattaroq yoki kichik bo'lishi mumkin. Kichik suv havzalarida yashovchi baliqlarning tanasi shilimshiq modda bilan qoplanganligini ko'rishimiz mumkin Chavoq baliq (*Rutilus rutilus*)lar o'z qarindoshlaridan ma'lum xususiyatlar bilan tubdan farqlanadi. Avvalo, baliqda jag'ning ikkala tomonida joylashgan faringeal tishlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Tana katta tangachalar bilan qoplangan, ularning lateral chizig'ida 45 tagacha bo'lak mavjud. Baliqning og'zi tumshug'ining pastki qismida, orqa qanoti esa to'g'ridan-to'g'ri qorin qanotlari ustida joylashgan. Tabiatda biz sariq qanotli turlarini, shuningdek, ko'zlarning rangi, orqa va yon tomonlari qizil rangga ega bo'lgan chavoq baliqni uchratishimiz mumkin.

**Oziqlanishi:**Chavoq baliq (*Rutilus rutilus*) vaqti-vaqti bilan suv yuzasiga chiqib o'zining sevimli taomi – hasharotlar bilan oziqlanadi, bundan tashqari u hasharotlarning lichinkalari va qurtlarini, suv o'tlarini, mollyuskalarni, turli xil baliqlarning tuxumlari bilan ham oziqlanadi. Chavoq baliq (*Rutilus rutilus*) lichinkalik davridan tashqari yil davomida to'xtovsiz oziqlanadi. Chavoq baliq (*Rutilus rutilus*)ni ovlashda, qurtlar, oddiy uy chivinlari va boshqa turli xil hasharotlardan foydalaniladi. Bug'doy yoki jo'xori donalari, non bo'laklari ham ularning sevimli ozuqasi hisoblanadi.

**Ko'payishi.** O'rtacha 3-5 yoshida chavoq baliq jinsiy etuklikka erishadi. Urug'lanishning boshlanishi yashash joyining haroratiga bog'liq. Suv qanchalik issiq bo'lsa, urug'lanish davri shunchalik erta boshlanadi, ya'ni apreldan boshlanib iyungacha davom etadi. Suvning pH qiymati 5,5 dan past bo'lsa, chavoq baliq muvaffaqiyatli ko'paya olmaydi. Urug'lanish davrida chavoq baliq kamdan-kam hollarda daryolar bo'ylab ko'chib o'tadi va doimiy joyda qolishni afzal ko'radi. U fitofil yani suv o'simliklarining zich chakalakzorlariga tuxum qo'yadi va suv o'simliklariga yopishgan tuxumlarini erkakalari tomonidan bir martalik urug'lantiriladi. Tuxumlarning diametri taxminan 1,5 mmga yetadi. Tuxumlarining soni taxminan 2,5-100 mingtaga yaqin. Tuxumlarning rivojlanishi 9-14 kun davom etadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalarning o'rtacha uzunligi esa 5,2-6,6 mmga yaqin bo'ladi. Ular tezlik bilan kichik umurtqasizlar bilan oziqlanishga o'tishadi.

**Turlari:** Bugungi kunda chavoq baliqning taxminan 17 turi ma'lum bo'lib, ular asosan chuchuk va chuchuk bo'lmagan suvlarda yashaydi. Ularga quyidagilar kiradi: oddiy chavoq baliq (*Rutilus rutilus*), Orol chavoq baliq (*Rutilus rutilus aralensis*), Kaspiy chavoq baliq (*Rutilus rutilus caspicus*).

*Rutilus aralensis* -Орол қизилкўзи-Tanasining uzunligi 30-36sm ga,og'irli esa 1kg ga yetadi.O'zbekistonning barcha past tekislik suv havzalarida uchraydi.Asosan suv o'tlari va

mayda suv hayvonlari bilan oziqlanadi. 2-3 yoshda jinsiy voyaga yetadi va mart-aprel oylarida 70-100 mingtagacha uvildiriq qo'yadi. Bu baliq Orol dengizi endemigi hisoblanadi va bu tur ovlanadigan baliqlar turiga kiradi.

**Chavoq baliq (*Rutilus rutilus*)ning ahamiyati.** Ushbu baliq turi past kaloriyaga egaligi bilan boshqa baliqlardan ajralib turadi va shu bilan bir qatorda parhez mahsuloti hisoblanadi. Ushbu baliqning ozuqaviy qiymati 89 kkal dan oshmaydi. Bu esa o'z vaznini kuzatadigan insonlar uchun muhimdir. Bundan tashqari, yosh baliqlar oson hazm bo'ladigan aminokislotalarga va qimmatli oqsillarga boy bo'lib bu keksa yoshli va kichik yoshdagi bolajonlar uchun eng muhim ovqat ratsioni hisoblanadi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 oktyabrdagi "Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-845-son qarori.
2. Saydulla Dadayev, Qalandar Saparov. Zoologiya (Xordalilar 2-qism). Cho'lpon nomidagi nashriyot. Toshkent-2011.
3. П. И. Жуков: «Рыбы: Популярный энциклопедический справочник». Минск, 1989.
4. В. С. Пенязь, Т. М. Шевцова, Т. И. Нехаева: «Биология рыб водоемов Белорусского Полесья». Минск,
5. 1973. Коттелат М. и Дж. Фрейхоф: «Справочник европейских пресноводных рыб». Берлин, 2007.
6. Mavlyanov O. M, Toshmanov N. J, Sanayeva L.Sh. Zoologiya. Toshkent -2013.
7. S.P.Naumov. Umurtqali hayvonlar zoologiyasi. Toshkent-1995.
8. M.N.Ibodova. Zoologiya .Nodirabegim nashriyoti Toshkent-2021y